



## **Qoraqalpog‘iston Respublikasida Demografik holat**

*2026- yilning yanvar-mart oylari uchun*

- I. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug‘ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari  
va metama’lumotlari

### **I. Asosiy demografik ko‘rsatkichlar**

2026-yilning 1-aprel holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2 057,7 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,1 foizga ko‘paygan. 2026-yil yilning yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar soni 8,1 ming nafarni, vafot etganlar 2,7 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o‘sish 5,4 ming kishiga teng bo‘ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko‘chib kelganlar soni 56 kishini va mamlakatdan xorijga ko‘chib ketganlar soni 727 kishini, qayd etilgan nikohlar 2,7 mingtani, nikohdan ajralishlar 0,5 mingtani tashkil etgan.

<b>Doimiy aholi soni</b>	<b>2 057,7</b>	<i>ming kishi</i>
<b>Tug‘ilishlar soni</b>	<b>8,1</b>	<i>ming kishi</i>
<b>O‘lganlar soni</b>	<b>2,7</b>	<i>ming kishi</i>
<b>Xorijdan ko‘chib kelganlar</b>	<b>56</b>	<i>kishi</i>
<b>Xorijga ko‘chib ketganlar</b>	<b>727</b>	<i>kishi</i>
<b>Nikohlar soni</b>	<b>2,7</b>	<i>ming birlik</i>
<b>Nikohdan ajralishlar soni</b>	<b>0,5</b>	<i>ming birlik</i>

## II. Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasida doimiy aholi soni 2026-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra 2 057,7 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22,6 ming kishiga, yani 1,1 foizga ko‘paydi. Doimiy yashash hududi bo‘yicha shahar joylarda 1 001,0 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 48,6 %), qishloq joylarda esa 1 056,7 ming kishi (51,4 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 024,0 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 1 033,7 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

### Doimiy aholi soni (1-aprel holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O‘shish sur‘ati, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>2 035,1</b>	<b>2 057,7</b>	<b>101,1</b>
Nukus sh.	346,1	350,4	101,2
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	216,3	219,3	101,4
Beruniy	209,8	213,2	101,6
Bo‘zatov	21,8	21,8	100,0
Qorao‘zak	54,7	54,7	100,0
Kegeyli	75,5	75,9	100,5
Qo‘ng‘irot	137,6	138,6	100,7
Qonliko‘l	54,5	54,9	100,7
Mo‘ynoq	33,9	34,1	100,6
Nukus	55,2	56,2	101,8
Taxiatosh	77,5	77,9	100,5
Taxtako‘pir	38,9	38,9	100,0
To‘rtko‘l	233,2	236,7	101,5
Xo‘jayli	130,3	131,6	101,0
Chimboy	116,6	117,2	100,5
Shumanay	58,6	58,8	100,3
Ellikqal‘a	174,6	177,5	101,7

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2026-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha 12,4 kishi to‘g‘ri kelgan. (2025-yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga 12,2 kishi).

### Aholi zichligi




### III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 8,1 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 15,9 promilleni tashkil etdi. Tug'ilishlar soni 2026-yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,7 ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni 2,7 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025-yilning mos davrida nisbatan 0,4 ming nafarga ko'paygan.


### Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Qoraqalpog'iston Respublikasida tirik tug'ilganlar soni 8,1 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 4,1 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 50,6 %), qiz bolalar soni 4,0 ming kishini (49,4 %) tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida vafot etganlar soni 2,7 ming kishini, shundan erkaklar 1,5 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,6 %), ayollar 1,2 ming kishini (44,4 %) tashkil etdi.

### Tugʻilganlar va vafot etganlarning jinslar boʻyicha taqsimlanishi, ming kishi




#### IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Qoraqalpogʻiston Respublikasida 2026-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni 2,7 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,4 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-mart oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,4 ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni 0,5 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.


#### Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Qoraqalpog‘iston Respublikasida nikoh tuzganlar soni 2,7 ming birlikni, shundan shahar joylarida 1,1 ming birlikni, qishloq joylarida 1,6 ming birlikni tashkil etdi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida nikohdan ajralishlar soni 0,5 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,3 ming birlikni, qishloq joylarida 0,2 ming birlikni tashkil etdi.

**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning  
shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi, ming birlik**



**V. Aholi migratsiyasi**


2026-yilning yanvar-mart oylarida respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar jami soni 3 545 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko‘chib kelganlar 3 489 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlar 56 kishini tashkil etdi.

Ko‘chib ketganlar jami soni 4 418 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko‘chib ketganlar 3 691 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar 727 kishini tashkil qildi.

### Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3 545</b>	<b>3 489</b>	<b>56</b>	<b>4 418</b>	<b>3 691</b>	<b>727</b>
Nukus sh.	1 245	1 244	1	1 032	873	159
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	174	166	8	272	248	24
Beruniy	172	172	0	281	256	25
Bo'zatov	25	25	0	75	62	13
Qorao'zak	80	80	0	183	161	22
Kegeyli	121	115	6	277	245	32
Qo'ng'iro't	126	118	8	256	180	76
Qonliko'l	109	109	0	158	140	18
Mo'ynoq	42	42	0	83	68	15
Nukus	317	313	4	193	183	10
Taxiatosh	116	115	1	161	113	48
Taxtako'pir	51	50	1	132	82	50
To'rtko'l	182	180	2	243	219	24
Xo'jayli	275	255	20	324	239	85
Chimboy	191	187	4	363	289	74
Shumanay	87	87	0	175	162	13
Ellikqal'a	232	231	1	210	171	39

### Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi





## **VII. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama‘lumotlari**

**Demografik ko‘rsatkichlarni** shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida ma‘lumotlar elektron almashinuvi bo‘yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma‘lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo‘ladigan barcha zaruriy ma‘lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko‘rsatkichlarni tavsiflovchi ma‘lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to‘g‘risidagi birlamchi ma‘lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma‘lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o‘lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma‘lumotlari.

Metama‘lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

---

**Tayyorlash uchun mas‘ul:**  
Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo‘limi

**Ijrochi:**  
A. Mamutova  
Tel: 61 222-76-57  
(9570)

**Manzil:**  
230103, Nukus,  
A. Dosnazarov ko‘chasi,  
97 a-uy Pochta:  
info@qrstat.uz

---